MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O‘YIN FAOLIYATI ORQALI TASHKILOTCHILIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Ortikova Xurshida Bahritdin qizi
Alfraganus Universiteti magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.24160965

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda tashkilotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘yin faoliyatining o‘rni va pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan. Shuningdek, syujetli-rolli va harakatli o‘yinlar orqali bolalarda yetakchilik, jamoada ishlash, o‘z harakatlarini rejalashtirish hamda mas’uliyatni his qilish kabi sifatlarni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha yosh, o‘yin faoliyati, tashkilotchilik ko‘nikmalari, syujetli-rolli o‘yin, ijtimoiy moslashuv, pedagogik yondashuv.

Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, xususan, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish va bolalarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida"gi Qonuni hamda "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturida bolalarning shaxsiy sifatlarini shakllantirishda o‘yin faoliyatiga asosiy ustuvorlik berilgan. Maktabgacha yosh davri — bola shaxsi shakllanishining poydevori bo‘lib, bu davrda kelgusidagi muvaffaqiyatli faoliyatning ijtimoiy-psixologik asoslari yotqiziladi. Bolalarda mustaqillik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik ko‘nikmalarini erta yoshdan boshlab rivojlantirish ularning maktab ta’limiga muvaffaqiyatli moslashuvi hamda kelgusida raqobatbardosh kadr bo‘lib voyaga etishini ta’minlaydi.O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bo‘lib, uning jarayonida bola hayotiy tajriba orttiradi, ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradi va tengdoshlari bilan muloqotga kirishadi. Tashkilotchilik ko‘nikmalari — bu shaxsning o‘z faoliyatini va boshqalarning harakatlarini muvofiqlashtira olishi, maqsad sari intilishi hamda jamoani jipslashtira olish qobiliyatidir. O`yin rivojlanishda nuqsoni bor bolalarning asosiy faoliyatlaridan hisoblanadi. O`yin doim haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o`zgarishi bilan uning mazmuni ham o`zgaradi. O`yin ma’lum maqsadga ko`ra yo`naltirilgan ongli faoliyat bo`lib, uning mehnat bilan ko`p umumiyligi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi. O`yin faoliyati asosida bolada o`quv faoliyati rivojlanadi. Shuning uchun bolalarning o`yin faoliyatini rivojlantirishga ahamiyat berishimiz kerak.Bola hech qachon jim o`ynamaydi, bitta o`zi o`ynasa ham u o`yinchoq bilan gaplashadi,o`zi tasvirlayotgan qahramon bilan muloqot o`matadi, onasi, bemor, shifokoi xullas hammaning o`rniga o`zi gapiradi. So`z obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi.Nutq o`yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o`z his-tuyg`u, kechinmalarini o`rtoqlashadi. So`z bolalar o`rtasida do`stona munosabatlar o`rnatilishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealari va faktlariga bir xilda munosabatda bo`lishga yordam beradi. Bolalarning o`zi yaratgan o`yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o`yinning g`oyasi, mazmuni, o`yin harakatlari, rollar, o`yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir.O`yin bola uchun haqiqiy hayotdir. Agar tarbiyachi bolalar o`yiinini oqilona tashkil eta olsagina u ijobiy natijalarga erishishi mumkin. A.P. Usova shunday degan edi: «Bolalar hayoti va faoliyatini to`g`ri tashkil etish — ulami to`g`ri tarbiyalash demakdir. Bolalarni tarbiyalashning o`yin shakli shuning uchun ham samarali natija beradiki, o`yinda bola yashashni o`rganmaydi, balki o`z hayoti bilan yashaydi».O`yin tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. O`yin bilan ta’lim o`rtasidagi bog`liqlik bola ulg`aygan sari o`zgarib boradi. Kichik guruhda o`yin ta’lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruhga borganda esa mashg`ulotlarda ta’limning roli ortadi. Tayyorlov

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

guruhiga borganda bolalarning o`zlarida maktabdagi o`qishga ishtiyoq uyg`onib qoladi. Ammo bolalar uchun o`yinning qadri yo`qolmaydi, balki mazmuni o`zgaradi. Endi bolalarni ko`proq

fikriy faollikni talab etuvchi o`yinlar, sport tarzidagi (musobaqa jihatlari bor) o`yinlar qiziqtira boshlaydi.O`yin bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasidir. O`yin orqali bolalar kattalarning mehnat tajribasini, bilim, malaka va ko`nikmalari harakat usullarini, axloq normalari va qoidalarini, mulohaza va muhokamalarini egallab oladilar. O`yinda bolaning o`z tengdoshlari va kattalar bilan bo`ladigan munosabat usullari shakllanadi, his va didlari tarbiyalanadi.Maktabgacha yoshdagi bolalarda bu ko‘nikmalarni shakllantirishda quyidagi pedagogik vositalar muhim ahamiyat kasb etadi: Syujetli-ro’lli o‘yinlar: "Shifoxona", "Maktab", "Oilalar", "Do‘kon" kabi o‘yinlar orqali bolalar o‘zaro vazifalarni taqsimlaydilar, o‘yin qoidalariga bo‘ysunadilar va boshqalarning harakatlarini boshqarishni o‘rganadilar. Rolni bajarish jarayonida bola o‘z zimmasiga mas’uliyat olishni va guruhni boshqarish elementlarini o‘zlashtiradi. Harakatli va jamoaviy o‘yinlar: Jamoaviy o‘yinlar bolalarni umumiy maqsad atrofida birlashtiradi. O‘yin sardori yoki yetakchisi bo‘lish vazifasi bolada o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi, tezkor qaror qabul qilish va jamoa fikrini jamlash ko‘nikmasini tarbiylaydi. Rejalashtiruvchi va konstruktorli o‘yinlar: Lego yoki qurilish materiallari bilan ishlash jarayonida bolalar birgalikda nima qurishni rejalashtiradi, vazifalarni o‘zaro bo‘lib oladi va natija uchun birgalikda harakat qiladi. Pedagogik amaliyot shuni ko‘rsatadiki, tarbiyachi bolalarning o‘yin jarayoniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashmasdan, balki "yonma-yon ishtirokchi" sifatida yordam berishi, bolalarga tanlov erkinligini berishi va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashi zarur. Agar bola o‘yinda qoida o‘rnatsa yoki boshqalarga yo‘nalish bersa, uni rag‘batlantirish tashkilotchilik qobiliyatining o‘sishiga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘yin faoliyati orqali tashkilotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish ularning ijtimoiy-hissiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. O‘yin jarayonida bola nafaqat dam oladi, balki jamoada ishlash, mas’uliyatni his qilish, o‘zaro hurmat va boshqaruv elementlarini o‘zlashtiradi. Kelgusida tarbiyachilar tomonidan har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda maxsus rivojlantiruvchi o‘yin texnologiyalarini qo‘llash maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchilik va tashkilotchilik salohiyatini yanada yuqori bosqichga ko‘taradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019-yil.
2. 2 "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022.
3. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebyonka. – Moskva: Smysl, 2004.
4. Nishonova Z.T., Alimboyeva Sh. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2018.
5. Umarova M. Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida o‘yinning o‘rni. // Maktabgacha ta’lim jurnali, №3, 2024.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.